

ИЖТИМОЙИ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвоҳид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухраҳон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Сеитов Азамат, Рубенян Ангелина ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КУЛЬТУРНЫХ БРЕНДОВ ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ КЫРГЫЗСТАНА С УЧЕТОМ ФАКТОРА УЗБЕКСКОЙ ДИАСПОРЫ.....	5
2. Alikariyev Nuriddin OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI....	12
3. Sabirova Umida OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA SOTSIOLOGIK MONITORINGNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	21
4. Burxanov Xusniddin MILLIY SAYTLARNING MODERNIZATSIYALASHUV VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	30
5. Dulanbo'yeva Oygul, Xolov Abduqodir AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA KITOB MUTOLAAASI IJTIMOIIY DETERMINANTLARINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI.....	37
6. Tolipov Abdug'affor MDH MAMLAKATLARIDA VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKLAR IJTIMOIY PROFILAKTIKASINING AMALGA OSHIRISH AMALIYOTI.....	44
7. Alikariyeva A'loxon RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH MUAMMOLARI.....	53
8. Tajieva Dilnoza XOTIN-QIZLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI "INSON-JAMIYAT-DAVLAT" HAMKORLIGIDA OSHIRISH.....	61
9. Nosirova Marguba THE IMPORTANCE OF NEW SKILLS IN IMPROVING WOMEN'S EMPLOYMENT AND ENTREPRENEURSHIP (UNTIL 2030).....	68
10. Kirgizbayev Turgun O'ZBEKISTON OMMAVIIY DIPLOMATIYASI MARKAZIIY OSIYODA ISHONCHNI O'RNATISH VOSITASI SIFATIDA.....	74
11. Asanov Xodjaxmet KOGNITIV FANNING SUN'IY INTELLEKT RIVOJIGA TA'SIRIDA IJTIMOIIY SIYOSATNING O'RNI.....	80
12. Kirgizbayev Turgun MARKAZIIY OSIYODA MA'NAVIIY-SIYOSIIY BARQAROR MUHITNI TA'MINLASHNING AHAMIYATI.....	92

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Tajieva Dilnoza,

DBA mustaqil tadqiqotchisi

O'zLiDeP Toshkent shahar Kengashi Yoshlar

muammolarini o'rganish va tadbirkorlarni

qo'llab-quvvatlash bo'limi mudiri

e-mail: dilnozatajiyeva@ gmail.com

XOTIN-QIZLAR IJTIMOY FAOLLIGINI "INSON-JAMIYAT-DAVLAT" HAMKORLIGIDA OSHIRISH



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18839984>

ANNOTATSIYA

Yangi O'zbekiston sharoitida ayollarning faolligini oshirish davlat va jamiyat tomonidan maxsus chora-tadbirlar ko'rishni, uzoqqa mo'ljallangan rejalar, dasturlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Raqobatga, manfaatlar to'qnashuviga asoslangan shiddat bilan o'zgarayotgan zamonda barcha ayollar ham o'z qobiliyati va salohiyatini to'liq namoyon etish imkoniga ega bo'lavermaydi. Ayollarning oddiy xizmatchi bo'lib ishlashi, mulk egasiga yollanishi boshqa-yu, ularning o'z istaklari, bilimiga mos keladigan tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan «o'z ishi»ni topishi boshqa. Keskin raqobat, mulklarning xilma-xilligi tufayli murakkablashadigan «kim o'zdi» hammaning ham o'z ichki ijodiy kuchlarini ro'yobga chiqarishiga imkon beravermaydi. Bu o'rinda tashabbuskor ayollarni qo'llab-quvvatlash, ularga «o'z ishi»ni rivojlantirishda yordam berish zarur bo'ladi. O'zini har tomonlama anglagan ayolgina munosabatlarda faollik ko'rsata oladi. O'z faoliyati, tadbirkorligini yo'lga qo'yib, haqiqiy mulk sub'ektiga aylanadi. Mazkur ilmiy maqolada Xotin-qizlar ijtimoiy faolligi bo'yicha ta'rif berilib, xotin-qizlar ijtimoiy faolligini «inson-jamiyat-davlat» hamkorligida oshirish bo'yicha aniq tahlil qilingan.

Kalit so'zlari: xotin-qizlar, zamonaviy, integratsiyalashuvi, siyosiy, deputatlari, O'zNNTMA, ayollar bandligi, tadbirkorlik, jahon, Yevropa, BMT, «Ayollar daftari», «Tadbirkor ayol», «Jamiyat va ayol», O'zLiDeP, sotsiologik.

Тажиева Дильноза,

соискатель Академии

государственной политики и управления,

руководитель отдела изучения молодежных проблем и

поддержки предпринимателей Ташкентской городской

администрации УзЛиДеП

e-mail: dilnozatajiyeva@ gmail.com

ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН В СОТРУДНИЧЕСТВЕ «ЧЕЛОВЕК-ОБЩЕСТВО-ГОСУДАРСТВО»

АННОТАЦИЯ

Повышение активности женщин в условиях нового Узбекистана требует принятия государством и обществом специальных мер, разработки долгосрочных планов и программ. В то время, когда стремительно меняется конкуренция и конфликт интересов, не все женщины могут в полной мере проявить свои способности и потенциал. Следует различать трудовую деятельность женщин в качестве наёмных работников у собственника и их стремление к формированию «собственного дела», соответствующего личным интересам и уровню профессиональной подготовки и способствующего развитию организаторских и управленческих способностей. Конкуренция не позволяет всем проявлять свои внутренние творческие силы. Поэтому необходимо поддерживать инициативных женщин и помогать им развивать «свое дело». Лишь женщина, достигшая всестороннего самопонимания, способна проявлять активность в межличностных отношениях. Она «налаживает свое дело и становится субъектом истинной собственности». В данной научной статье даны рекомендации по социальной активности женщин, а также проведен анализ по повышению социальной активности женщин в сотрудничестве «человек-общество-государство».

Ключевые слова: женщины, современные, интеграционные, политические, депутаты, ННЦН, женская занятость, предпринимательство, мир, Европа, ООН, «Тетрадь женщин», «Женщина-предприниматель», «Общество и женщина», УзЛиДеП, социологический.

Tajiyeva Dilnoza,

Independent researcher at the Academy
of Public Policy and Management,
head of the Department for the Study
of Youth Issues and Entrepreneurship Support at the Tashkent City
Administration of UzLiDeP
email: dilnozatajyeva@gmail.com

INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF WOMEN IN COOPERATION “MAN-SOCIETY-STATE”**ABSTRACT**

Increasing the activity of women in the new Uzbekistan requires the adoption by the state and society of special measures, the development of long-term plans and programs. At a time when competition and conflicts of interest are rapidly changing, not all women can fully show their abilities and potential. Just because women serve as mere servants, are hired into property, does not mean they will find “their jobs” that will help them develop organizational skills that suit their desires and knowledge. Competition does not allow everyone to show their inner creative strengths. Therefore, it is necessary to support initiative women and help them develop “their work”. Only a presumptuous woman can be active in a relationship. He “sets up his business and becomes the subject of true property”. This scientific article provides recommendations on the social activity of women, as well as an analysis on increasing the social activity of women in cooperation “man-society-state”.

Key words: women, modern, integration, political, deputies, NNTS, women's employment, entrepreneurship, peace, Europe, UN, “Women’s Notebook”, “Woman Entrepreneur”, “Society and Woman”, UzLiDeP, sociological.

KIRISH

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlar manfaatlariga mos keladigan, ularning huquqlarini himoya qiladigan, xotin-qizlarni har tomonlama rivojlanishiga, aholi turmush darajasining muttasil o‘tib borishiga imkon beradigan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy tizimlarni amaliyotga tatbiq qilishga allohida e’tibor qaratilmoqda. Xotin-qizlar faolligini rivojlantirish murakkab jarayon. Birgina tadbirkorlikni rivojlantirishning o‘zi iqtisodiy va ijtimoiy-axloqiy muammolar bilan cheklanib qolmaydi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xotin-qizlar tadbirkorligini

rivojlantirish, birinchi navbatda, rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega demokratik davlat sharoitidagina amalga oshirish mumkin.

Bugungi kunda Prezident Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan amalga oshirilayotgan islohotlar mutlaqo yangi bosqichga o'tdi. "Davlat bosh islohotchi" degan tamoyil "Jamiyat islohotlarning tashabbuskori" ga transformatsiya bo'ldi. "Davlat-jamiyat-shaxs»" uchligi tamoyili aksincha, "Inson-jamiyat-davlat" uchligiga aylantirildi. Bunda inson omili ustuvor bo'lgan davlatda "Fuqaroga xizmat qilishga yo'nalganlik" tamoyili, "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" tamoyiliga asoslandi.

Prezident Sh.Mirziyoyev xotin-qizlar faolligini oshirishning aniq dastur va mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy tajribani inobatga olgan holda, qisqa muddatlarda Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro tashkilotlarni jalb qilish lozimligini ta'kidlab o'tdilar. Bu borada bir qator loyihalar ishlab chiqildi.

METODOLOGIYA

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ta'rifiga ko'ra, qashshoqlik – insonning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan daromad va resurslar yetishmasligi, bundan tashqari, ochlik va to'yib ovqatlanmaslik, sog'liqni saqlash, ta'lim yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalanishda cheklovlarning mavjudligi, turar joyning yo'qligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashiga nisbatan aytiladi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Har bir oila – tadbirkor" [2], dasturi, "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari" [3], to'g'risidagi farmoni, "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar" [4], to'g'risidagi tegishli hujjatlar qabul qilindi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan nutqida bir qator tashabbuslarni ilgari surgan edi. Jumladan, kambag'allikni qisqartirish va unga qarshi kurashish masalasini BMTning navbatdagi sessiyasi asosiy mavzularidan biri sifatida belgilash [5], shuningdek, ushbu mavzuda Global Sammitni o'tkazish to'g'risidagi tashabbus jahonshumul ahamiyat kasb etdi.

BMTning ma'lumotlariga ko'ra, yer yuzida 700 milliondan ortiq odam qashshoqlikda kun kechiradi. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar bevosita kambag'allikka qarshi kurashishda muhim poydevor vazifasini o'tamoqda.

Jumladan, O'zbekistonda kambag'allikka qarshi kurashish sohasida institutsional yondashuv qo'llanayotganini alohida ta'kidlash lozim. Hukumat tarkibida Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimi joriy etildi. Shuningdek, joylarda vertikal tarzda tadbirkorlik muhitini yaratish va rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mas'ul lavozimlar joriy etildi. Bunda kambag'allikni qisqartirishning aniq dastak va mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy tajribani inobatga olgan holda, kambag'allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubiyatini, ijtimoiy ta'minotning minimal standartlari va me'yoriy asoslarini ishlab chiqish va joriy etishga katta e'tibor qaratildi.

Respublikaning barcha hududlarida aholi turmush darajasini oshirish, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Respublikamizning barcha komplekslarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash maqsadida har bir hududning mavjud ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bunda "mahallabay" ishlash tizimi bo'yicha bir qator ishlar olib borildi. Viloyatlarda 3 bo'g'inli "Mahallabay ishlash" tizimi joriy etilgan bo'lib, bugungi kunda ushbu tizim o'zining bir qator ijobiy samarasini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida" PQ-3777-son qarorini [6] bajarish doirasida respublikadagi har bir oilada tadbirkorlik bilan shug'ullanish va barqaror daromad manbaiga yega bo'lish uchun sharoitlar yaratish chora-tadbirlarini amalga oshirish belgilab berildi.

Odamlarni rozi qilish ma'naviy kamolotning bilvosita avval insonlararo, keyin jamoalararo, provard natijada butun jamiyat miqyosida ma'naviy muhitini barqarorlashuvini asoslovchi nazariya.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida" [7]gi farmoni, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus, Prezidentning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomalari, Prezidentimizning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72 hamda 75 sessiyalaridagi ma'ruzalari, Prezidentimizning 2021-yil 21-yanvarda o'tkazgan Respublika ma'naviyat va ma'rifat Kengashida so'zlagan nutqi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining tashkil etilishi, "1+1 – bir tadbirkorga bir ishsiz yosh" dasturi, "1+10 – Bir nuroniy o'n ta yoshga ma'naviy murabbiy" va boshqa tashabbuslari mamlakatimiz ma'naviy muhitining o'ziga xos tarzda shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5975-son Farmoniga [8], muvofiq, samarali makroiqtisodiy siyosatni yuritish, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali viloyatda kambag'allikni qisqartirish borasida maqbul siyosatni amalga oshirish tizimi joriy etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4862-son qaroriga [9], muvofiq tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, aholining keng tabaqalarini tadbirkorlik bilan shug'ullanishga jalb etish, boshlang'ich kapital manbalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash tizimini kengaytirish va uning samaradorligini oshirish sohasida hamda aholining tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida keltirilgan mexanizmlar, xususan, ularni o'qitish, mikroredit ajratish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish borasida viloyatda chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, aholi farovonligini oshirish, kambag'allikni qisqartirish tadbirlari amalga oshirilmoqda. Xotin-qizlarni har tomonlama rivojlantirish, kasbiy malakasini oshirish orqali bandligini ta'minlash eng asosiy masala hisoblanadi. Bu borada ham viloyatda keng tizimli tadbirlar amalga oshirildi.


ASOSIY QISM

Xotin-qizlar faolligini oshirish, ularda tadbirkorlik ruhini uyg'otish, ayollarning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, xotin-qizlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun eng muhim omil ayollarning intilishi, o'z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakati bo'lishi lozim. Murojaatnomada Prezidentimiz ta'kidlagan mazkur fikrni to'laroq anglab olish uchun 2017-yilgacha bo'lgan holatni tahlil qilish joizdir. Ilgari, ya'ni 1992-yildan boshlab 25 yil mobaynida subsidiar siyosat (subsidiar siyosat imkoniyati cheklanganlar, yetim bolalar, o'ta kam ta'minlangan oilalarga davlat tomonidan faqat moddiy yordam berish tartibi bo'lib, moliyaviy ko'mak olgan shaxslar davlat yoxud jamiyat tashkilotlariga biror bir tayinli hisob bermasligi va javobgarlik mas'uliyatini zimmasiga olmasligini ifodalovchi holatni anglatadi) yurgizilib kelingan. Bu siyosat jahonda aholining faqat moddiy ehtiyojlarini qoplashga yo'nalgan harajatlar bo'lgani uchun insonga va biror bir soha rivojiga "foйда keltirmaydigan harajatlar", deb qaraladi. Subsidiar siyosat bo'yicha davlat tomonidan qilinuvchi harajatlar ko'p hollarda ijtimoiy dangasalikka, ya'ni, ko'pchilik aholining ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etmaslikka o'rganib qolishiga, tekin yeb-ichishga ko'nikishga va mehnat bozorini rivojlantirishga o'z takliflari bilan ishtirok etmaslikka odatlanib qolishiga olib keladi.

O'zbekistonda shu davrda amalga oshirilib kelingan subsidiar siyosat dunyodagi aholini ijtimoiy qo'llash faoliyatini tartibga soluvchi asosiy xalqaro hujjat mazmuniga, ya'ni, 1962-yildagi Xalqaro Mehnat Tashkiloti Konvensiyasiga mos kelmagan. Konvensiya hujjatida "Har qanday ijtimoiy ko'mak berish fuqarolarni ijtimoiy, intellektual yoki kasbiy rivojlantirish uchun rag'batlantirishga yo'nalgan bo'lishi kerak" [10], deb belgilab qo'yilgan.

Prezidentimiz mazkur muammo yechimining eng to'g'ri va maqbul yo'lini, ya'ni har bir insonni, jumladan xotin-qizlarni tanlagan sohasidagi bilimlarini yuksaltirish, malakali kasb-hunar o'rgatish, yoshlarni ustozlarga birlashtirib tajriba o'tqazish mexanizmi eng to'g'ri yo'l ekanligini ko'rsatib berdilar. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan millatimiz sha'ni va xarakteriga mos kelmaydigan kambag'allikdan xalos ettirishdan iborat bugungi ijtimoiy siyosat endilikda Xalqaro

Mehnat Tashkiloti qoidalariga to'la mos keladi va uning pirovard maqsadi insonni kasbiy yoki intellektual jihatdan rivojlantirish orqali uni baxtli va boy-badavlat qilishdir.



1-chizma. Xotin-qizlar faolligini “inson-jamiyat-davlat” hamkorligida oshirish modeli

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanish jarayonlariga davlat e‘tibori yuksalganligini bugungi kunda butun dunyo e‘tirof etmoqda. Ammo, bu jarayonga jamiyat e‘tiborini kuchaytirish, inson tomonidan o‘zini o‘zi rivojlantirish holatini tubdan isloh etish, inson kapitalini takomillashtirish bugungi kunda juda dolzarb masalalar sanaladi. Shu boisdan ham, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Barqaror rivojlanish dasturi” hamda “XXI asr uchun kun tartibi” dasturlarini amalga oshirish, ularning hayotchanligini ta‘minlash masalasi ham dastavval turli hududlardagi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning mutanosib kechishi, turli tomonlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi, jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar vakillarining hamjihatligi, davlatlar, tashkilotlar va shaxslarning bir-biriga bog‘liqlik darajasining mustahkamligiga bevosita aloqador ekanligi qayta-qayta ta‘kidlanmoqda. Quyidagi chizmada xotin-qizlar faolligini oshirishda inson-jamiyat-davlat uchligi asosida yondashish imkoniyatlari keltirilgan. Mazkur yondashuv barcha tuzulmalarni va resurslarni to‘laqonli safarbar qilish imkoniyatini berishi bilan ahamiyatlidir (1-chizma).

Xotin-qizlar faolligini oshirish borasida davlatimiz va hukumatimiz tomonidan ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, xususiy tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish uchun imtiyozli kreditlar ajratilishi, subsidiya siyosatini amalga oshirilishi, “Har bir oila – tadbirkor” dasturi, “Mahallabay ishlash” tizimi, aholining muhtoj qatlamlari uchun “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ning yuritilishi xotin-qizlarni ish bilan bandligini oshirishga o‘ziga xos tizimi shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qildi.

Shuni ham inobatga olish kerakki, xotin-qizlar faolligini oshirish masalasi bu nafaqat muayyan mablag‘ yoki sarmoyaning yetishmasligi, balki eng avvalo kishida yetarli bilim, malakaning, ratsional va obrazli tafakkurning yetishmasligi, “ijtimoiy odam”, “iqtisodiy odam”, “siyosiy odam”, “madaniy odam” tushunchalarining shaxsda to‘laqonli gavdalanmaganligi kabi bir qator muammolar bilan ham bevosita bog‘liq. Buning natijasida ko‘p holatlarda bepul tarqatilgan parrandalarning kasallanib o‘lishi, qora mollarning so‘yib yoki sotib yuborilishi, imtiyozli kreditlardan samarali foydalana olmaslik, hayotini o‘nglay olmaslik holatlarini kuzatish mumkin.

Ushbu holatlar bir tomondan etatik darajada masalaga davlat e‘tiborini qaratilishi bilan birga, ikkinchi tomondan inson omilini yuksaltirish, jamiyatda shaxs faolligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirishga e‘tibor qaratishni taqozo qiladi.

Mamlakatimizda islohotlar sharoitida xotin-qizlar faolligini davlat va jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlash borasidagi ijtimoiy ko‘rsatkichlarini tadqiq etish natijasida jamiyatda xotin-qizlar faolligini oshirish, ularni tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirish, xotin-qizlarni mulk subyektiga aylantirish uzoq davom etuvchi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy jarayon bo‘lib, bunda bilim, salohiyat, malaka, ko‘nikma, imkoniyatdan tashqari ko‘plab omillar bilan bog‘liq.

Bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha bo‘lgan davrda Barqaror rivojlanish dasturining “hech kimni ortda qoldirmaslik” tamoyili bilan hamohang O‘zbekistondagi islohotlar “Inson manfaatlar har narsadan ustun” tamoyiliga asoslangan. O‘zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish borasida sezilarli yutuqlarga erishildi. Xotin-qizlarning tadbirkorlik darajasi 2000-yildagi holatga nisbatan 2025-yilda bir nechti barobarga oshdi. Ammo, hududiy tengsizlik saqlanib qolmoqda va hatto yildan yilga oshib bormoqda.

Dissertatsiyada ilgari surilgan “Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini inson-jamiyat-davlat uchligida rivojlantirish modeli” xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, o‘zini jamiyatga faol tadbiriq qilishni o‘zida aks ettiradi. Inson-jamiyat-davlat uchligida amalga oshiriladigan, shaxsning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, aniq natijaga qaratilgan bu model davlat va nodavlat strukturalar uchun qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, keyingi yillarda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga nisbatan davlatning faolligi sezilarli darajada oshib bormoqda. Buni xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ajratilayotgan subsidiyalar, uy-joyi bo‘lmagan oilalarga uy ajratish, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha imtiyozli kreditlar berilishi, ish bilan band bo‘lmaganlarni ijtimoiy himoya qilish bilan birga, mehnat bozorini boshqarish bilan bog‘liq jarayonlarda ham kuzatish mumkin. Shuningdek, xotin-qizlarning mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-

quvvatlash va rag‘batlantirish, ish bilan ta’minlanish sohasida ijtimoiy kafolatlar berish va majburiy mehnatga batamom barham berishda namoyon bo‘lmoqda.

Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, inson kapitalining rivojlanish manbalari va omillarini o‘rganish natijalariga ko‘ra, inson kapitali uchun shaxs va oila darajasidagi investitsiyaga e’tiborni kuchaytirilganligini kuzatishimiz mumkin. Oila xotin-qizlarga kiritadigan investitsiya orqali ularda inson kapitalini shakllantirish, ularni ham jismoniy, ham intellektual va ham ruhiy rivojlantirish, muntazam takomillashib borishlarida muhim poydevor hisoblanadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. БМТнинг 2021 йилги “Ижтимоий ҳимоя борасида юқори даражадаги Бутун жаҳон Саммити” дан. https://kun.uz/kr/63800741?ysclid=mahswqqho_8349281805
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 июндаги “Ҳар бир оила – тадбиркор” дастурини амалга ошириш тўғрисида” ПҚ-3777-сон қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 26 мартдаги “Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришга оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5975-сон Фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 13 октябрдаги “Аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш тизимини такомиллаштириш ва тадбиркорликни ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-4862-сонли Қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 75-сессиясида сўзлаган нутқи.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 июндаги “Ҳар бир оила – тадбиркор” дастурини амалга ошириш тўғрисида” ги ПҚ-3777-сон Қарори.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон-2030” стратегияси тўғрисида” ги ПФ-158-сон Фармони.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 мартдаги “Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришга оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5975-сон Фармони.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш тизимини такомиллаштириш ва тадбиркорликни ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2020-йил 13-октябрдаги ПҚ-4862-сон Қарори.
10. Халқаро Меҳнат Ташкилоти Конвенцияси, 1962 йил.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000